
"SOG'LOM HAYOT SARI 5 MING QADAM" - MARAFON QO'SHTEPADA DAVOM ETMOQDA

Qo'shtepa tumani hokimligi, tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda hamkor tashkilotlar tashabbusi bilan yoshlar, korxonalar va tashkilot xodimlari ishtirokida "Sog'lom hayot sari 5 ming qadam" shiori ostida piyoda yurish marafoni o'tkazildi.

Yurish kabi yengil jismoniy mashqlar holsizlik, semizlik va boshqa salbiy holatlarni oldini oladi hamda salomatlikni mustahkamlaydi.



Mazkur marafon Qorajiyda mahalla fuqarolar yig'inidagi BO'SM o'yingohida tashkil etilib, barcha marafon ishtirokchilari karantin qoidalariga to'liq rioya qilgan holda qatnashdilar.

Zuxriddin Muxammadjonov,

tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi bosh mutaxassisi.

2020-11-30 20:37:10